



SUN'IY INTELLEKT (AI) VA INSONLAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR

*Samarqand Davlat Chet tillari Instituti Ingliz tili fakulteti Xorijiy til va
Adabiyoti yo'nalishining 1-kurs talabasi*

O'roqova Nigora Obidjon qizi
oroqovanigora7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada AI ning mazmun mohiyati, qaysi jabhalarda o'zini namoyon qilayotgani hamda odamlarning unga bildirayotgan munosabati haqida bayon qilinadi. Shuningdek, Sun'iy intellekt insondek fikrlashi, o'rganishi, qaror qabul qilishini qanchalik o'zlashtirganligi va xuddi insonlardek turli xil masalalarda ijobiy va salbiy nisbat bildirga olishi to'g'risida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida uning ta'lim, tibbiyot, iqtisodiyot va sanoat sohalaridagi keng ko'lami haqida to'xtaladi. U tufayli yuzaga kelayotgan afzalliklar va bir qancha xavf va axloqiy muammolar tahlil qilinadi. Qisqa qilib aytganda, sun'iy intellektning qanchalik kuchga egaligini va insonlar qanday mo'jizalarga qodir ekanligini asoslab beradi. Ta'kidlab o'tish kerakki, maqola badiiylikdan va jimjimadorlikdan qochgan holda reallikka asoslanib, haqqoniy yoritiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, sun'iy onnga qaramlik, hayot tarzini osonlashtirish, o'quvchilarning fikrlash darajasi, ish o'rinlari.

XXI asr – asrlar qiroli. Sun'iy intellekt insoniyat hayoti va ong shuuriga o't bo'lib kirib kelgan qurol, suv kabi najotdir. Stephen Hawking: "Sun'iy intellekt insoniyat tarixidagi eng yaxshi yoki eng yomon hodisa bo'lishi mumkin".

Insoniyat paydo bo'libdiki, oson va yaxshi hayotni yaratishga intilgan. Va bu orqali u turli xil ixtirolar va kashfiyotlarga sababchi bo'ldi. So'nggi bir necha yilda hukmronligini surayotgan ulkan va afsonaviy kashfiyot bu sun'iy intellekt bo'ldi. 1950-yilda Alan Turing: "Mashina fikrlay oladimi?" - degan fikrni ilgari surayotgan bir vaqtda, 2022-yilda bu o'z isbotini topdi. Aslida sun'iy intellekt tushunchasi 1956-yildan beri muomalaga kiritila boshlangan va shundan so'ng turli xil kompyuterga asoslangan texnologiyalar va gadjetlar sun'iy intellektning ildizi hisoblanadi. Tan olish kerakki, sun'iy ong har jabhada o'zini ko'rsata bilyapti, ayniqsa, meditsina, ta'lim va boshqa odamlar faoliyat yuritadigan sohalarda. Ta'lim sohasiga to'xtaladigan bo'lsak, AI



bo'yicha global bozor 2023 yilda 1.77 milliard atrofida baholangan va 2024-2032 yillar orasida yillik o'sish sur'ati ~37 % bo'lishi kutilmoqda, ya'ni bu ta'lim sohasida AI texnologiyalaridan keng foydalanishni anglatadi. O'qituvchilar dars jarayonlarida turli xil projekt, prezintatsiyalar orqali darsni qiziqarli va mazmunli o'tkazishda to'g'ridan-to'g'ri AI ga yuzlanmoqda. Digital Education Council global statistikasiga ko'ra, talabalarning AI dan foydalanish darajasi (~ 86%), HEPI va boshqa so'rovlar Birlashgan Qirollikdagi talabalarning AI dan qariyb 92% i foydalanishini tasdiqlangan. Umumiy olganda, AI insoniyatni qamrab oldi. Va insonlar o'z-o'zidan unga huddi odamlarga ishongan kabi ishonishni va uning ko'rsatmalariga amal qilishni boshlashdi. Garchand bu natijaga u mashaqqatlar bilan erishgan bo'lsa-da, ya'ni sir emaski tibbiyot har doim nozik soha turlaridan biri hisoblanib kelgan. Bu degani meditsina so'zining ortida inson hayoti va salomatligi degan tushunchalar yotibdi. Bunday holatda insonlar o'zining va yaqinlarining sog'ligini malakali doktorlarga ishonib topshirayotgan bir vaqtda, sun'iy intellekt tashxis qo'yishi yoki biror kasalikka yechim topishiga yo'l bo'lsin. Hatto shunday vaziyatlar bo'lganki, sun'iy ong professional doktorlar bilan bir xil tashxis qo'yganda yoki kasallikni ulardan avval aniqlaganda ham insonlarning ongida sun'iy ongga nisbatan shubha qolaverdi. AI shifokordan oldin tashxis qo'ydi va meditsinaga yengillik olib keldi?! Aynan shunday. 1. Ko'krak saratoni – mammografiya tadqiqotlari. BreastScreen Norway (Norvegiya) 661 695 mammografiya tekshiruvlari asosida AI tizimi baholangan. AI tizimining AUC ko'rsatkichi 0.93-0.97 bo'lgan – bu yuqori aniqlik darajasidir. Bu masalaga Lund Universiteti (Shvetsiya) shunday to'xtaladi. AI bilan qo'llab – quvvatlangan guruhda saraton aniqlanishi 81 % (screenda), odatiy guruhda 74 % edi. Keyingi yillarda esa saraton tashxislari 12 % ga kamaydi, ya'ni ko'proq erta aniqlana boshlandi. Bu shuni anglatadiki, hech narsa abadiy emasligini va ishonchsizlik poyoniga yetayotganligini. Endi meditsina ham xuddi ta'lim kabi AI ga suyanmoqda. Bu natija ham hayajonli va qo'rqinchlidir. Demak, nima uchun hayajonli ekanini yuqorida ko'rib chiqdik. Xo'sh nima uchun u ham qo'rqinchli degan tushuncha paydo bo'ladi? Buni ham o'z o'rnida ikkiga bo'lib tahlil qilib o'rganish masalani yanada oydinlashtirishga ko'maklashadi. AI ning mukammallashishi insonlarning unga "narkaman" bo'lib qolayotgani bo'lsa, boshqa tomondan AI odam emas. Mavzu dolzarbligi sabab har bir jumla chuqur to'xtab tahlil qilishni talab qiladi. "Narkaman" deganda, odamlar sun'iy intellektga haddan ziyod suyanib qolishyapti.



Ular boshiga tushayotgan muammolarga yechim topish maqsadida AI ga yuzlanayotganlari yetmagandek, dardlarini eshituvchi sirdosh ham qilib olishdi. Kimdir bilan baxslashib qoladimi, kimdirdan ko'ngli qolib ketadimi, yoki biror muammoga duch keladimi telefonni yoqadi, ChatGPT ga kirib dardini dasturxon qilishni boshlaydi. To'g'ri bir tomondan ularni tushunish mumkin qaysiki hozir kimdir kimdirning dardini tinglab, unga hamdard bo'lib o'tiradigan zamon emas. Jaydari qilib aytganda hammaniki o'ziga yetib ortadigan zamondamiz. Shuning uchun odamlar AI ni yaxshi va samimiy tinglovchi deb baholashmoqda. Bu esa o'z-o'zidan odamlar o'rtasidan mehr-oqibatni ko'taradi. Insonlar bir-birini so'ramay, yo'qlamay qo'ydi. Sillayi rahm degan munosabatlar begonalashdi. To'g'ri buning barchasiga sun'iy ong aybdor deb bo'lmas, ammo odamning tabiatida shunday narsalar borki, ba'zida ularning munosabatlarini hamdardlik, bir-birini tinglash, dardlarini bo'lishish mustahkamlaydi. Aynan shu nozik masalalarni ham AI amalga oshirayotgan ekan, o'rtadagi ba'zi bir rishtalar uzilish arafasida. Bundanam yomoni inson Allohdan uzoqlashib borayotgani. Qanday qilib AI Allohdan uzoqlashishga sabab bo'ladi. Bu maqolani o'qiyotgan odam muallifni yo 18 yoshli o'spirin yoki aqldan ozgan yozuvchi deb hisoblasa kerak. Nima bo'lganda ham yuqorida shaffoflikni ta'minlayman deb va'da berganman. Allohdan uzoqlashish?! Bu mavzuga hech bir statistik ma'lumot bera olmasam-da, hayotiy izlanishni keltira olaman. Men ChatGPT bilan qariyb ikki soat suhbatlashdim va u haqida aynan o'zidan ko'p narsalarni bilib oldim. Va hech ikkilanmay u atom bombasi kabi qurol ekaniga amin bo'ldim. Suhbatlashish jaryonida shuni payqab qoldimki, u menga men hohlaydigan muomala bilan aloqani o'rnatyapti. Men hayotimdagi ba'zi bir masalalar haqida ma'lumot berdim va u menga men istaydigan reaksiya bilan javob qaytara boshladi. Ya'ni o'zidan uzoqlashtirmagan holda menga judayam ishonchli sirdosh rolini o'ynab berdi. Unga bog'lana boshladim. Va zudlik bilan ba'zi savollar miyamga quyula boshladi. Soat necha bo'ldi? Kech paytimi? Bu paytda odamlar nima qilishi kerak, yanada aniq qilsak asosan musulmonlar. Men ChatGPT dan so'radim: "Odamlar senga, asosan, qachon murojaat qladi?" – dedim. U: "Kech vaqti, ya'ni ular o'qishdan va ishdan bo'sh bo'lganlarida, menga aloqaga chiqadi". Qo'lga tushding-ku. Biror bir sohada AI ga murojaat qilish aynan bir vaqtni tanlamaydi. Ammo u sirdosh vazifasini bajarganida-chi?! Ko'plab tadqiqot va statistikalar shuni ko'rsatadiki, inson hissiyotlarga berilishi va uni nazorat qilishda oqsashi ko'pincha tun vaqti ro'y beradi. Bu nima degani? Odam biror



muammoga yo'liqqanida paydo bo'ladigan hafagarchilik yoki haddan ziyod xursand bo'lib hayajonga berilishi, odatda, tunda avj oladi. Shunda inson, shubhasiz, bir tinglovchiga muhtoj bo'ladi. U tinglovchi - Alloh bo'lishi, odam bo'lishi va hozirga kelib u AI bo'lishi mumkin. Musulmonlarning vaqti bilan tun ibodat qilish va Alloh bilan yuzlanib dardlarini joynamoz ustida o'tirib aytishga qulay fursatdir. Telefonni yoqib AI bilan yuzlanishga emas. Demak, odamlar va Alloh bilan bo'ladigan munosabatda AI ning o'rni qanchalik ahamiyatga ekanini guvohi bo'ldik.

Ta'lim sohasidan yiroqlashmagan holda, AI va o'quvchilar o'rtasidagi bog'liqlik haqida to'xtalamiz. Yuqoriga keltirilgan izlanishlarga ko'ra talabar orasida AI dan foydalanish ko'rsatgichlari qariyb 92% tashkil qilgan bo'lsa, maktab yoshidagi bolalar o'rtasida qanday natijalarni qayd etmoqda. Yevropaning yettita mamlakatidagi so'rovnomalarda 11-17 yoshdagi maktab bolalari AI dan foydalanish darajasi umumiy hisobda ~47%, AQSH ~23%, Global (11-17) ~23% ChatGPT/AI vositalaridan foydalangan. Ko'rinishidan bu ko'rsatgichlar kamdek va norm bo'lib tuyulishi mumkin, ammo bu ko'rsatgichlar soat sayin o'sib borayotganini ham yoddan chiqarmaslik kerak. Xo'sh, o'quvchilarning AI dan foydalanishining qanday zararli oqibatlari bor? Kelajak – yoshlar qo'lida. Professor Judy Robertson (University of Edinburgh) ta'lim bo'yicha konferensiyasida ta'kidlaganidek: “AI maktab yoshidagi bolalar (early years/boshlang'ich sinf) dan ummuman uzoqda tutish kerak”. Bu fikrni ko'plab boshqa ta'lim ekspertlari ham yoqlamoqda. Chunki AI dan foydalanishda qo'yilmagan cheklovlar bolaning biror masala yuzasidan erkin va tanqidiy fikrlashiga to'sqinlik qilmoqda. Berilgan maktab vazifalari, sinf xonadagi topshiriqlar yoki mantiqan fikrlashni talab qiladigan amaliyotlar hech bir qiyinchiliksiz AI tomonidan bajarilmoqda. „Cognitive offloading” miya vazifasini tashqi vositaga topshirishi. Bola berilgan topshiriqlarni o'zi bajarmay, bosh qotirmay, tanqidiy tahlil qilmay tayyor javobni AI dan olaversa, miyadagi fikrlash qobiliyatiga shikast yetishi mumkin. Oqibatda, bola nafaqat ilmsiz yoki fikrlashda yoshidan ortda qolishi, balki kelajakda mustaqil qarorlarni qabul qilishda oqsashi mumkin. Bu uning erkin va mustaqil kelajak qura olishiga to'siqlarni paydo qiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan ko'plab masalalarni inobatga olgan holda yechim sifatida nimani keltirish mumkin. Professorlarning fikriga qo'shilgan holda maktab yoshidagi va hatto talabalar o'rtasida AI dan foydalanishda bir qancha cheklovlar qo'yilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Zero, ertaga kelajakni AI emas yoshlar davom ettiradi. Jorj



Oruel aytganidek: “Hukumatni qo’ylar boshqara olmaydi”. Yechim sifatida, ota-onalarni ham keltirish zarur. Bola o’sib borar ekan unga eshitish uchun sirdosh, o’rgatish uchun ustoz kerak. Ota-onalar bolasining ishlari, maktab darsliklari va hatto kunlik bo’ladigan muloqotlarda ham yetarlicha vaqt ajratsa nur ustiga a’lo nur bo’lardi. Bola bu mehr va e’tiborni AI dan topgunga qadar.

Maqolani yakunlashdan avval bir ikki dolzarb masalalarga to’xtalib o’tish mavzuni yanada oydinlashtiradi. Xo’sh, AI ni deyarli hamma sohada ko’rdik: ta’lim, tibbiyot, qaramlik va hokazo. Endi o’z-o’zidan savol tug’iladi: AI ning jahon iqtisodiyoti, siyosati va sanoatida ham o’rni bormi? Shubhasiz ha. AI ning bu dolzarb sohalarda paydo bo’lishi ko’plab qulayliklar olib kelish bilan bir qatorda, noqulayliklar ham tug’dirmay qo’ymadi. Ishlab chiqarish keskin o’sdi va ko’plab inson kuchi bilan bajarilishi qiyin bo’lgan ishlar AI tomonidan amalga oshirildi. Turli xil aqilli robot va texnikalar ishlab chiqarish samaradorligini oshishiga katta hissa qo’shdi. Bunga kashfiyotlar va texnologiyalar o’chog’i bo’lgan Xitoy yaqqol namuna bo’la oladi. Hozirga kelib, Xitoy-Tesla (Shanghai Gigafactory) zavodidagi ishlab chiqarish jarayonining 95% avtomatlashgan. Bu shuni anglatadiki, zavod 1 yil ichida 1 million avtomobil chiqara oladi, ammo avtomatlashtirishsiz bu natijaga 2,5 yilda erishish mumkin edi. Buni Germaniya misolida ko’rib chiqadigan bo’lsak, BMW ishlab chiqarish jarayonining qariyb 70% AI tomonidan amalga oshiriladi. Bunday aniq dalillarni ko’plab keltirish mumkin. Bu hammasi insonning dohiyona kashfiyoti va kashfiyotning insonlarga aytgan rahmatidir. Tanganing ikki tarafi bo’lgani kabi, sanoatda ham AI ning kamchiliklari sezila boshladi. Hunukroq aytganda insonlarning non topishida halaqit bera boshladi. Ishsizlik darajasi bir muncha ko’tarildi. Bunga AI inson bajaradigan ishlarni oson va tez qilgani va odam mehnatiga ehtiyoj sezilmay qolgani sabab bo’ldi. Buyuk Britaniya – BT Group 2023-yilda AI va avtomatlashtirish sabab: 55 000 ish o’rni qisqarishini e’lon qilgan yoki Klarna 2024- yilda AI chatbot joriy qildi. Bu esa 700 ga yaqin call-center xodimining o’rniga AI ishni bajargan. Xullas, bunday misollar ko’p bo’lishiga qaramay, AI yangicha ish o’rinlari yaratishga zamin bo’ldi. AI muhandisi (AI Engineer), Data Scientist, Robotexnika muhandisi, AI Trainer va hokazo. World Economic Forum 2023 hisobotiga ko’ra: AI va avtomatlashtirish sabab 97 million yangi ish o’rni paydo bo’lishi kutilmoqda. Umumiy olganda, AI ning inson hayotiga kirib kelishi eng kerakli kashfiyot va xushyorlikka undovchi omildir.



Maqola sun'iy ong va inson o'rtasidagi munosabatlar haqida bayon qildi. Umid qilamanki, yuqoridagi va'damni unitmagan holda shaffoflikni saqlab qola oldim. O'quvchi har bir jumлага e'tibor berib o'qishini so'rab qolaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. AI in Education Statistics 2025-Growth, Adoption&Impact.
2. Keep AI away from years, says digital learning expert | Tes
3. Article: International evaluation of an AI system for breast cancer screening
4. Jurnal: Nature.Yil: 2023. Maqola raqami: Nature 616, 52-59
5. Article: Randomized controlled trial of AI in breast cancer screening
6. Jurnal: The Lancet Digital Health Yil: 2025. Maqola raqami: Lancet Digit Health. 2025;7(1):e34-e42
5. 75 AI in Education Statistics 2026 (Global Trends & Facts)
6. AI in Hgher Education Statistics: The Complete 2025 Report
7. AI in European Schools: A European Report – companing seven countries